

YOSHLARNI IJTIMOIIY O'Z-O'ZINI ANGLASH VA O'Z-O'ZINI BAHOLASH MEHANIZMLARI

Kurbanova G.B.,
GulDPI dotsenti

Annotatsiya: ushbu maqolada yurt kelajagi bo'lgan yoshlarning o'z -o'zini anglashi, o'z-o'zini baholay olishi, shuningdek o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish. Bugungi kunda yoshlarga yaratilgan keng imkoniyatlar va shart -sharoitlar, shaxsiy barkamollikni kamol toptirish shuningdek yoshlarning bugungi kundagi yutuqlari haqida batafsil ma'lumotlar joy olgan

Kalit so'zlar: davlat, yutuq, muvaffaqiyat, kelajak, yoshlar, bunyodkorlik, jamiyat, yuksalish, sub'ekt, kuzatish, baholash, shaxs, daraja, nuqson, kamchilik, talabchan, axloq, huquq, aqliy tarbiya, texnika, usul, shakl

Аннотация: в данной статье рассматривается самосознание молодежи, которая является будущим страны, способность к самооценке, а также правильному использованию своих возможностей и условий, созданных для молодежи сегодня, личностной развития а также подробную информацию о достижениях современной молодежи

Ключевые слова: государство, достижение, успех, будущее, молодежь, творчество, общество, подъем, предмет, наблюдение, оценка, человек, уровень, недостаток, недостаток, требовательность, мораль, закон, интеллектуальное воспитание, техника, метод, форма

Annotation: in this article, the self-awareness, self-evaluation, and proper use of one's potential are discussed in this article. There are detailed information about the wide opportunities and conditions created for the youth today, the development of personal perfection, as well as the achievements of the youth today

Key words: state, achievement, success, future, youth, creativity, society, rise, subject, observation, assessment, person, level, defect, deficiency, demanding, ethics, law, intellectual education, technique, method, form

Inson bu dunyoga kelib yashagandan boshlab o'ziga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni bilishga qiziqadi va bu yo'lda juda ko'p mulohazalar qiladi. Insonlar eng avvalo kuzatishlar orqali atrof-muhitni insonlarni va albatta o'zlarini tushunadi, anglaydi. Eng birinchi hamma ko'proq o'zini kuzatgani uchun o'zi to'g'risidagi barcha haqiqatni biladi. Ba'zida bizni kuzatayotgan yaqinlarimiz biz haqimizda turlicha ijobiy va salbiy fikrlarini bildirishadi. Har kimning o'z hayoti, dunyoqarashi bor, hamma o'zi uchun idealdir balki, lekin haqiqiy ideal inson bu o'z -o'zini anglagan insondir.

Jamiyatlardagi barcha shaxslar o'zlarini baholay olishi, shuningdek anglashi zarur. O'z-o'zini baholash eng avval o'zini anglashdan boshlanadi. O'zini anglash mana shu insonga xos xarakter, qobiliyat, xulq-atvori, madaniyat, axloq bilan bog'liq.

O'zini baholash-bu shaxs tomonidan o'z-o'zini, o'z imkoniyatlari, sifatlarini va odamlar orasidagi o'rnini baholash. Bu psixologiyada o'zini anglashning mohiyatliroq bo'lgan va eng ko'p o'rganilgan tomonidir.

Shaxs asosiga tegishli bo'lgan holda o'zini baholash xulq-atvorining muhim boshqaruvchisi bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning atrof-dagilar bilan o'zaro munosabatlari uning o'ziga nisbatan tanqidiyligi, talabchanligi, yutuq va kamchiliklarga munosabati o'zini baholashga bog'liqdir. O'zini baholash qanday tarkib topadi? Boshqa odamning sifatlarini o'rgangan sayin, shaxs xususiy bahoni ishlab chiqish imkonini yaratuvchi zarur ma'lumotlarga ega bo'ladi. Inson o'zini to'g'ri baholay olishi zarur. O'zini baholashda yoqmaydigan sifatleri bo'lsa yoki biror xususiyatidan ko'ngli to'lmasa

o'zini tanqid qilishi kerak, mana shu asnoda asta-sekin o'z kamchiliklarini tuzatib ijobiy hislatlarni shakllantirib, o'zini to'g'ri yo'lga yo'naltirib, o'ziga nisbatan to'g'ri baho beradi. Shaxsiy "Men" haqida tarkib topgan baholanish shaxsning boshqa odamlarda ko'radiganlari va o'zidagi kuzatishlari bilan muntazam ravishda solishtirib borishning natijasidir. Odam o'zidagi ba'zi bir narsalarni bilgan holda o'zini boshqa bilan solishtiradi, boshqaning ham uning shaxsiy sifatlari, harakatlari, ifodalariga befarq emasligini taxmin qiladi, bularning barchasi shaxsni o'zini baholashiga tegishli bo'lib, uning ruhiy kayfiyatini belgilaydi. Boshqacha aytganda, shaxs doimo referent guruh ya'ni real yoki idealga egadir, shaxs unda o'z qadriyatlarini o'zlashtirgani uchun bu guruh bilan hisoblashadi, uning ideallari va qiziqishlari bo'lishi mumkin. Shuningdek, shaxsning ham ideallari va qiziqishlari bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy davlat va demokratik jamiyat taraqqiyoti sharoitida zamonaviy shaxsga qo'yiladigan talablarni kuchaytirishning ob'ektiv ehtiyoji vujudga keldi, bu ijtimoiy faol, mustaqil, ijodiy shaxsga bo'lgan talabni ko'rsatadi. Shu munosabat bilan yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish uchun ma'sul bo'lgan davlat muassasalari faoliyatini takomillashtirish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Aynan ular yangi shaxsni shakllantirish uchun eng maqbul shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatiga ega.

Shaxsning o'zini-o'zi takomillashtirish muammosiga e'tibor shaxsning ichki faoliyatini, uning zaxiralarini o'rganish, ulardan rivojlanish jarayonida shaxsning mustaqilligini oshirish uchun ulardan maksimal darajada foydalanish bilan bog'liq.

Yosh avlod har qanday davlatning kelajagi, aniqrog'i bu butun millat farovonligiga sarmoya ekani hammaga birdek ma'lum. Yoshlarning salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish butun xalqning ijtimoiy va iqtisodiy farovonligini ta'minlaydi. Shu sababli ham O'zbekiston rahbari ta'lim va yoshlarni ish bilan ta'minlash muammolariga e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston respublikasi prezidenti tashabbusi bilan 2016-2021-yillarda yoshlar siyosatiga doir 5ta qonun va 55ta qonunosti hujjatlari qabul qilingan. 2016-yilda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi qonunida yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qilishi alohida ta'kidlanib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar qonun bilan mustahkamlandi.

Bugungi kunda yoshlarga berilayotgan e'tibor, ularga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik miqyosi yildan-yilga kengayib bormoqda. Bunday imkoniyatlar hattoki qonun bilan ham mustahkamlab qo'yilgan. Ayniqsa, bosh qomusimizda yosh avlodning huquq va manfaatlari aniq moddalar bilan muhrlab qo'yilgani, hech shubhasiz, bu boradagi huquqiy bazani yanada kengaytirish, amaliy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatni ochadi. Hozirgi vaqtda yoshlarga maktab, professional va oliy ta'lim sohasida bilim olishga, zamonaviy kasb-hunar egallashga, madaniyat va sport yo'nalishlarida o'z tadbirkorlik faoliyatini yuritishga yaratilgan sharoitlar natijasida bugungi kun yoshlari juda katta yutuqlarga erishmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yoshlarga yaratilgan imkoniyatlardan yana biri bu Respublikamizdagi barcha mahallarda prezident vakili yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, bu vazifaga intiluvchan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega, tashabbuskor yoshlar saralab olindi.

Mahallalarda bu tizim orqali yoshlarga 100dan ortiq imkoniyatlar yaratildi. "Yoshlar daftari" tizimi yo'lga qo'yilib so'nggi ikki yilda 798ming nafarga yaqin yoshlarga qariyb 1trillion so'mlik yordamlar ko'rsatildi. Yoshlar ham yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli sohalarda dastlabki yutuqlarni qo'lga kiritishmoqda.

O'zbekiston respublikasida yashayotgan har bir yosh o'ziga yaratilayotgan imkoniyatlardan, shart-sharoitlardan, vaqtida foydalanishi, ularni qadrlashi, o'z yutuq muvaffaqiyatlari bilan ijtimoiy, iqtisodiy, ta'lim sohasini yanada yuksaltirib bormog'i zarurdir. Yoshlar qachonki o'z -o'zini anglasa va imkoniyatlarini to'g'ri baholay olsa ijtimoiy jamiyatga shunchalik ko'p foyda keltiradi. Ammo bugungi davrda yoshlarning o'ziga yaratilayotgan imkoniyatlarni to'g'ri baholay olmasliklari natijasida katta muammolarga duch kelishmoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarning har qanday kichik yutuqlari uchun ham rag'batlantirib kelmoqdalar. Biz yoshlar ham bunday imkoniyatlarga mos bo'lishimiz va jamiyat taraqqiyoti uchun o'z hissamizni qo'shib borishimiz zarur. Eng foydali investitsiya bu ta'limga, ilmga tikilgan investitsiyadir chunki u bir kun kelib o'z mevasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.G.B.Kurbanova."Yunogogika" 2023.30-31-betlar.
- 2.1 jakobson pm motivatsiyaning psixologik muammolari. P.M.
3. Yangi O'zbekiston gazetasi 2023-yil. 2-qism.
- 4.Yangi avlod yangi kelajak .2022. 23-28-betlar.